

## TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8045194>

**Vohidova Muqaddas Rasuljon qizi**

*Oriental universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Karimova Madina**

*Oriental universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada Ona tili fanini o'qitishdan maqsad - o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratligi, Ona tili darsi o'quvchilar taffakurini o'stirish ustida ishlash maqsadiga yo'naltirilganligiga qarab baholanishi haqida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar.**

*ona tili, shakllantirish, o'qitish, fikrlash, nutq o'stirish, faoliyat, rivojlantirish, ifodalash.*

Ona tili – millatning ruhidir. Til – davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

Til – millat ko'zgusi. Shu bois, ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur", deya xitob qilishi bejiz emas edi. Zero, ma'naviyatning ko'zgusi bo'lgan ona tiliga bo'lgan munosabat shaxsning ma'naviyatga bo'lgan munosabatini ham belgilaydi. Murg'ak qalb ona tili vositasida ma'naviyatga oshno bo'ladi. Yosh avlodga tilga e'tibor va ehtirom ko'rsatib, unga davlat tili sifatida qarashning mas'uliyati kabi tuyg'ularni singdirish va mustahkamlab borish muhim vazifadir. Bu xususda ko'p va xo'p gapirilgan bo'lishiga qaramay, muammo hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Milliy qadriyatlarimizning asosiy ustuni bo'lgan ona tilimizga 1989-yil 21-oktabr kuni davlat maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida ham davlat tili – o'zbek tili ekani mustahkamlab qo'yildi. O'zbek tili davlatimizning ramzlari

qatorida turadigan va qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi.

Har bir kishi ona tilimizni ulug'lashi, uning softligi uchun kurashishi, kerak bo'lsa, himoya qilishi kerak. So'nggi yillarda davlat tiliga e'tibor kuchaydi. Prezidentimiz 2019-yil 21-oktabr kuni "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligi"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqlarida "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin", deya ta'kidlaganlari har birimizning ona tilimizga bo'lgan mehrimizni yanada oshirdi. Bu so'zlar aslida, barchani o'zbek tiliga bo'lgan e'tibori va hurmatini yuksaltirishga qaratilgan ulkan chorlov da'vati bo'ldi. Haqiqatdan ham onalarimizning allasi-yu, tariximizda yozib bitilgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma'naviy merosi tilimizning softligi-yu va bebaholigidan so'zlaydi.

Ona tili fanini o'qitishdan maqsad - o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Afsuski, hozirgi kunda o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati, adabiy til me'yoriga amal qilish va, eng asosiysi, fanga bo'lgan qiziqish susayib bormoqda hamda buni inkor qilib bo'lmaydi. Oxirgi yillarda ingliz, rus tillarini o'rganishga bo'lgan talab juda kuchli, bu, albatta, tobora jadal rivojlanib borayotgan jamiyat bilan bog'liq. Til bilgan yaxshi, ammo o'z ona tilisini mukammal bilmay turib boshqa tillarga mehr bilan qarash o'zbek tilining nufuzini yanada pasayishiga olib kelyapti, nazarimda. O'zbek xonadonlarining farzandini rus tili o'rgatiladigan sinf yoki maktablarga qo'yib bolani til o'rganish bilan bog'liq muammoga duch qilishyapti. Bola nutqida turli xil tildan foydalanish kuzatilyapti. O'zga tillarni o'rganib boshqa millat urf - odatlarini egallashga bo'lgan ishtiyoq, taqlid qilish kabilar kuchaymoqda. Pedagoglardan birinchi navbatda ona tilimizning jahondagi o'rnini, nufuzini o'quvchiga chuqur, juda chuqur singdirib, mehr uyg'otib, sir - sinoatini o'rgatib, boshqa tillar bilan bellasha oladigan qirralarini ko'rsatib undan keyin o'zga tillarni egallashdagi ehtiyoj nimadan iborat ekanligini tushuntira olish talab qilinadi.

Ona tili darsi, avvalo, o'quvchilar nutq va tafakkurini o'stirish darsidir. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo'lishi uchun o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o'stirish ko'rsatmasi grammatik materialni o'rgatishda o'quvchilarning tilimizdagi har bir so'z turkumi

yoki soʻz qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qoʻllashni talab etadi, yaʼni grammatik nazariya grammatik toʻgʻri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini oʻstirishga amalda tatbiq etish uchun oʻrgatiladi. Darsda bolalar nutqini oʻstirish darsning mazmunida va qoʻllanilgan vazifalar turlarida oʻz aksini topadi.

Grammatik, soʻz yasashga oid, imloviy materiallarni oʻrganishni nutq oʻstirish bilan bogʻlash oʻquvchilar aqliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bolalar nutqini oʻstirish jarayoni ularning tafakkurini oʻstirish bilan bogʻliq.

Ona tili darsi oʻquvchilar tafakkurini oʻstirish ustida ishlash maqsadiga yoʻnaltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va imloviy materialni oʻrganish jarayonida shu materialni yaxshiroq oʻzlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni oʻtkazish tushuniladi. Masalan, „Oʻzakdosh soʻzlar“ tushunchasini shakllantirish uchun soʻzlarning leksik maʼnosi va morfemik tarkibini taqqoslashni (ularning maʼnolarida umumiylikni va ularda bir xil oʻzakning mavjudligini) bilish lozim. oʻquvchilar tafakkurini oʻstirish uchun oʻqituvchi darsga tayyorlanganda, vazifa tur-larini tanlaydi, darsning materialini va uni oʻzlashtirishda oʻquvchilar bajaradigan aqliy faoliyat mashqlarini ham belgilab oladi.

Oʻquvchilarga beriladigan nazariy bilim tildan ongli foydalanish imkonini beradi. Nazariyaga ahamiyat berish, elementar tarzda boʻlsa ham, oʻquvchilarning til hodisalari oʻrtasidagi bogʻlanishni bilib olishiga eʼtibor berish demakdir. Ona tili darslarining foydali boʻlishiga darsda ogʻzaki va yozma ishlarni maqsadga muvofiq oʻtkazish, oʻquvchilarning oʻquv ishlarini tekshirib, nazorat qilib borish, oʻz vaqtida xatoJarining oldini olish va toʻgʻrilash, texnika vositalaridan foydalanish kabi omillar katta taʼsir koʻrsatadi.

Oʻquvchi yangilikka intiluvchan boʻladi. Har qanday fanni fanlararo bogʻlab oʻrgatish maqsadga muvofiq. Oʻquvchini fanga qiziqtirish, avvalo, pedagogning bilimi, malakasi boʻlsa, undan keyin dars jarayonida qoʻllay oladigan zamonaviy metod va innovatsion texnologiyalardir. Ona tili fani oʻquvchi-yoshlar bilimining asosiy poydevorini tashkil etish bilan birga ularning nutq boyligini taʼminlashda ham muhim oʻrin egallaydi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda maktablarda ona tili va adabiyot fanining chuqurlashtirib oʻtilishini, sifatli dars mashgʻulotlari olib borilishini, fanlararo bogʻlanishlarni kengroq taʼminlashga alohida ahamiyat berilishini talab etmoqda. Shunday ekan maktablarda oʻquvchi-yoshlar qiziqishi, fanga moyilligi asosiy masaladir.

ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviysiyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini Shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar) ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikraalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guaihlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga tmkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, birbiridan ajratilmagan holda o'quvtarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi. Beriladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar maktab dasturlari va davlat ta'lim standartida qayd etilgan.

Kelajak yoshlarimiz qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish va amaliyotga moslashtirish har bir pedagogning oldidagi mas'uliyatli vazifadir. Bilim beramiz, o'quvchi test ishlay oladi va nazariy savollarga ham javob beradi, ammo amaliy bajarib berishga kelganida hatto texnik qoidalarini ham nazariy bayon etadi, amaliy bajara olmasligi isbotlangan. Ayniqsa, ona tili darsligidagi keyingi yillar bir qancha tanqidga uchrab tog'irlanib borilayotgan kamchiliklar o'quvchining chalg'ishiga olib kelmoqda. Ingliz tilidagi barcha darslik-qo'llanmalar esa suratlar, turli usul va metodlar bilan til o'rganishning yengil usuli orqali o'quvchini o'ziga jalb etadi. Har bir nazariy qoida amalda bajarilib ko'rsatiladi. Bu har qanday o'quvchini o'ziga jalb qiladi va barcha darsliklarni suratlar bilan bezatilgan holda mavzuga doir metodlarga moslab chiqarilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

### ADABIYOTAR RO`YHATI:

1. Akbarova F. TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING O 'RNI //Development of pedagogical technologies in modern sciences. - 2023. - T. 2. - №. 5. - C. 18-21.

2. Abduraxmonovna N. D. TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING O'RNI VA O'ZBEK TILINING NUFUZI. – 2023.

3. Saidjonovna X. S. TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING O'RNI //Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – T. 1. – №. 9. – C. 97-101.